E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI PROGNOZLASHTIRISH USLUBIYATI, XUSUSIYATLARI, TAKOMILASHLASHTIRISH YO`NALISHLARI

Xolbekov Baxtbek Odamboy og'li
O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Annotatsiya: Ushbu maqola mahalliy byudjet daromadlarini prognozlashtirishning o`ziga xosligi, xususiyatlari hamda usullari muhokamasiga bag`ishlanadi.
Kalit so‘zlar: Soliq, budjet siyosati, budjet, soliq ma’murchiligi, mahalliy budjet, soliq salohiyati, normativ tahlil, pozitiv tahlil.

KIRISH

Davlat budjeti tuzumidan va taraqqiyot darajasidan qat’i nazar, davlat funksiyalarini bajarish uchun budjet daromadlarini lozim darajada shakllantirish har bir davlat uchun zarur hisoblanadi. Bu esa pandemiya sharoitida, aholini qo‘shimcha ijtimoiy himoya qilish zarurati yuzaga kelgan vaqtda, iqtisodiy faollikning kamayishi, ta’dbirkorlik faoliyatining to‘xtashi va boshqa omillar natijasida davlat budjeti daromadlarining kamayishi ko‘p davlatlarda davlat budjeti daromadlarini shakllantirishda optimal yondashuv zarurligini taqozo etadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Ye.Bekker esa soliq to‘lovchilar davlat byudjetiga soliq to‘lamaslikka intilish sabablarini o‘rganib, soliqdan qochishga qarshi kurashish orqali davlat budjeti daromadlarini oshirish yo‘llarini ko‘rsatib bergan [4].

Jumladan, A.V.Brыzgalin o‘z tadqiqotlarida soliq tushumlari bilan soliq yuki o‘rtasidagi bog‘liqliklarni tadqiq qilib, uning soliq tushumlari prognoziga ta’sirini baholagan bo‘lsa [1], V.G. Panskov va V.Kынyazev budjetni prognoz qilishda soliq tushumlarini prognozlashtirishning ahamiyatini ko‘rsatib bergan[2].

S.Xudoyqulov o‘z tadqiqotlarida ekonometrik usullar orqali davlat budjeti jami daromadlarining 2018-2023 yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlangan [1], A.Agzamov jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining 2019-2023 yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlagan[6], U.Pardaev davlat budjeti daromadlarini prognozlash masalalarini tadqiq etgan [7].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Davlat soliq xizmati organlarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning prognoz parametrlarini hisobga olgan holda, mahalliy budjetga soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha tushumlarni hisoblash O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Davlat budjeti daromadlarini prognozlash quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirilishi lozim:

uzluksizlik tamoyili prognoz baholashni takomillashtirish uchun prognozlash ja rayonining doimiyligini (real vaziyatning kutilayotgan o‘zgarishlari munosabati bilan prognoz baholashni aniqlashtirish), shuningdek, budjet daromadlarini prognozlash va daromadlarni boshqarish rejalarini tuzish o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi;

ko‘p variantli hisob-kitoblar tamoyili – turli prognoz variantlarini taqqoslash va optimal variantni tanlab olish;

to‘liqlik tamoyili O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha daromadlarni budjetda muhimligi va ahamiyatliligi talabiga rioya etilishini hisobga olgan holda to‘liq hajmda prognoz qilishni nazarda tutadi;

birlik tamoyili barcha ma’muriy-hududiy birliklar bo‘yicha budjet daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlashda yagona yondashuvni qo‘llashni nazarda tutadi;

izchillik tamoyili quyidagilarni anglatadi:

budjet daromadlari prognoz ko‘rsatkichlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish parametrlari va yo‘nalishlariga hamda budjet parametrlariga muvofiqligi;

ehtiyotkorlik tamoyili hisob-kitoblar uchun zarur bo‘lgan mulohazani shakllantirish jarayonida ma’lum darajada ehtiyotkorlikni nazarda tutadi, bu esa daromadlarni oshiribko‘rsatish va yo‘qotishlarni to‘g‘ri baholash oldini olishga imkon beradi.

Shuningdek, davlat budjeti daromadlari prognozini shakllantirish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi lozim:

daromad turlari bo‘yicha bazani aniqlash (yig‘ish, to‘plash), prognozlash uchun parametrlartizimini tanlash;

mahalliy budjetga daromadlar tushishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, daromadlar o‘sishini rag‘batlantiradigan hamda daromadlar o‘sishini sekinlashtirish mumkin bo‘lgan ta’sirlar to‘g‘risida ekspert xulosalarini ilgari surish;

dastlabki ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish, ularni baholash, ma’lumotlarning bir xilligi va solishtirilishini tekshirish;

zarur hollarda budjet daromadlari to‘grisidagi dastlabki ma’lumotlarni qonun hujjatlariga muvofiq tuzatish, budjet yo‘qotishlarini (qo‘shimcha daromadlarini), bir martalik tushumlarni miqdoriy baholash;

mahalliy budjet ko‘rsatkichlari dinamikasi tendensiyalarini aniqlash, prognozlarning bir nechta variantlarini ishlab chiqish;

daromadlarni prognoz qilishning turli xil variantlarini ko‘rib chiqish va eng maqbulini tanlash hamda budjet daromadlari bo`yicha fiskal ko‘rsatkichlarni umumlashtirishlozim bo‘ladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Davlat moliyasini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiy-matematik modellashtirish va basho- rat qilish kabi keng doiradagi ilmiy usul- larni qo‘llashni takomillashtirish zarur.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Xudoyqulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DcS) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. 2019 yil. 14-16, 20-21, 28-29-b.

2. Agzamov A.T. Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2019 yil. 17-22-b.

3. Pardaev U.O‘. Davlat budjetini prognozlashtirish uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. 2018 yil. 11-20-b.

4. Мухитдинова, М. С., & Камалова, М. Н. (2020). Развитие педагогических инноваций в Узбекистане. *Наука и образование сегодня*, (6-1 (53)), 67-69.

5. Камалова, М. (2020). Наука и образование сегодня№ 6 РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Архив научных исследований*, (26).

6. Камалова, М. (2020). Наука и образование сегодня№ 4 РОЛЬ СОВРЕМЕННОГО ПРЕПОДАВАТЕЛЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ СТАНОВЛЕНИИ МОЛОДЁЖИ. *Архив научных исследований*, (26).

7. Камалова, М. Н. (2022). МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ ЯЗЫКОВОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ НЕЯЗЫКОВЫХ ВУЗОВ. *Архив научных исследований*, *2*(1).

8. Камалова, М. Н. (2022). ВОСПИТАНИЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ ЭКОНОМИСТОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ. *PEDAGOGS jurnali*, *11*(5), 62-68.

9. Аджеминова, Э. Р. (2021). ВЛИЯНИЕ ИДИОЭТНИЧЕСКОГО АСПЕКТА НА РАЗВИТИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, *1*(5), 99-103.

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

10. Аджеминова, Э. Р., Джагаспанян, Р. Н., & Исмаилов, Р. С. (2022). ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ И ОБРАЗНЫЙ СТРОЙ ЯЗЫКА. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, *2*(18), 121-125.
11. Саидова, Н. О., & Йигиталиева, М. Ш. (2022). АХБОРОТ-КОММУНИКАТИВ ТАЪЛИМ МУҲИТИНИНГ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. *Miasto Przyszłości*, *28*, 395-398.
12. Саидова, Н. О. (2022, November). БОШЛАНҒИЧ СИНФ ЎҚИТУВЧИСИНИНГ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИ. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 10, pp. 260-263).

WORDLY
KNOWLEDGE